

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**



**“SIFATLI TA’LIM VA INNOVATSION MUAMMOLAR,
YECHIMLAR VA YONDASHUVLAR” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

MATERIALLAR TO‘PLAMI

7-8 -Aprel 2026 yil



Guliston-2026

1. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: W. Strahan and T. Cadell, 1776.
2. Say J.-B. A Treatise on Political Economy. – London: Longman, Hurst, Rees, Orme and Brown, 1803.
3. Bastiat F. Economic Harmonies. – Paris, 1850. Burxanov A.X. va boshqalar. Qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar kiritish - tarmoqni modernizasiya qilishning muhim sharti. International scientific journal “Modern science and research” volume 3 / issue 4 / uif: 8.2 / modernscience.uz. ISSN: 2181-3906 2024. 441-446-b.
4. Burxanov A.X. Zamonaviy qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti: yangi imijining shakllanishi Monografiya – Sirdaryo: Ziyo nashr-matbaa, 2024. – 132 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”. – 25.12.2019 y., O‘RQ-598.

**IQTISODIYOTNING AGRAR SEKTORIDA TEXNOLOGIK VA
INNOVATSION JARAYONLARNING RIVOJLANISH QONUNIYATLARI**
Matrasulov Baxodir Erbutayevich

**Guliston davlat universiteti,
“Buxgalteriya hisobi va moliya” kafedrasi katta o‘qituvchisi**

Kirish. Iqtisodiyotning agrar sektoridagi texnologik va innovatsion jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish unda innovatsion faoliyatning ilmiy asoslangan modelini shakllantirishning zarur unsuridir.

Qonuniyat ko‘plab qonunlarning ta’siri natijasidir, ulardan biri bu jarayon uchun asosiy, hal qiluvchi qonun hisoblanadi.

Tahlil va mulohazalar. Iqtisodiyotning agrar sektori rivojlanishini belgilovchi asosiy qonun – tabiat qonunlaridir. Tabiatda umumiy va “tabiiy” qonunlar mavjud: energiyani saqlash, massa, moddalar, harakat miqdori; rezonans; harakat va teskari harakat; sabab-oqibat munosabatlari, shuningdek falsafa qonunlari: qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi; inkorni inkor etish; miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi. Tabiat qonunlari koevolyutsiya qonuniyatini belgilaydi, ya’ni nafaqat inson tabiatga, balki tabiat ham insonga moslashadi.

Tabiiy sohadan farqli o‘laroq, texnosfera (texnologik muhit) sun’iy yashash joyidir va o‘tgan davrda iqtisodiyotda to‘plangan asosiy kapitalning bir necha avlodlari, shuningdek ishchi kuchining iqtisodiy madaniyati darajasi bilan tavsiflanadi. Texnosferada doimo mutatsiyalarni keltirib chiqaradigan omillar (“depressiyalovchi” omillar) mavjud bo‘lib, ular evolyutsiya asosida yotadi va insonning tez o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishini susaytiradi.

Iqtisodiyotning agrar sektorida innovatsion faoliyatni boshqarishga tizimli-

kompleks yondashuv texnologik rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini hisobga olishni talab qiladi.

Innovatsion jarayonlarning siklliligi qonuniyati innovatsion jarayonlarning asosini tashkil etuvchi ko‘p martalik aloqalar tufayli yuzaga keladi. Agar innovatsiya kiritilsa, lekin kerakli iqtisodiy samarani bermasa, u holda iqtisodiy vaziyat yomonlashadi, innovatsion jarayon amalga oshiriladigan resurslar miqdori kamayadi; natijada jarayon to‘xtaydi.

Ilmiy-tadqiqot, ilmiy-texnik ishlanmalar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga tayyorgarlik, ishlab chiqarish, saqlash va sotish jarayonlarining o‘zi iqtisodiyotning agrar sektorida innovatsion jarayonlarning asosiy funksional uchastkalari hisoblanadi.

Barcha uchastkalarining umumiy vazifasi sifatida yangi mahsulot, qurilmalar, iqtisodiyotning agrar sektorini boshqarish uchun yangi usul va tizimlar ko‘rinishidagi ilmiy-texnik ishlanmalar natijalarini amalga tatbiq qilish maqsadlarida texnologik va boshqaruvga oid axborotlarni qayta ishlash vazifasi maydonga chiqadi.

To‘g‘ri boshqariladigan innovatsion jarayonda, innovatsiyalar o‘zlashtirilgach, og‘irlik markazi tabiiy ravishda ilmiy-texnik tadqiqotlar va ishlanmalar sohasidan tayyor mahsulotlarni sotish sohasiga o‘tadi. Innovatsion jarayon tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan holda amalga oshirilsa, uning unsurlari doimiy ravishda o‘zaro bog‘liq bo‘lib, axborot almashinuvi (texnologiya uzatish) va uni qayta ishlash doimiy ravishda amalga oshiriladi. Iqtisodiyotning agrar sektori innovatsion muhiti agrosanoat bozorining teskari aloqalarini hisobga olgan holda, jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda o‘z mahsulotlarini takomillashtirib boradi.

Iqtisodiyotning agrar sektorida ishlab chiqarish resurslarini o‘zgartirishning bunday sikllari bilan bir vaqtda tabiiy sikllar (hosildorlikning 2 yillik ritmlari; qurg‘oqchilik yillarning takrorlanishi); mahsulot ishlab chiqarish sikllari; ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilmalar sikllari, boshqaruv sikllari va boshqalar mavjud.

Sanoat va umumiy iqtisodiy sikllardan farqli o‘laroq, qishloq xo‘jaligi sikllari uzoqroq (64 yil) va tarixiy rivojlanish jarayonida qisqarishga moyildir. Ularning rivojlanishiga quyosh faolligining 11 yillik sikllari hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi (64 yil – quyosh faolligining taxminan 6 sikli).

Texnologik rivojlanish nazariyasida *ilmiy-texnik jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishini belgilab beruvchi ta’siri qonuniyati* muhim o‘rin tutadi.

Ijtimoiy rivojlanish darajasi texnik baza bilan belgilanadi, bu N.D. Kondratevning “uzun to‘lqinlar va katta sikllar nazariyasiga doir ilmiy ishlanmalarida yaqqol aks etgan”. Uzun to‘lqinlar nazariyasi xo‘jalik faoliyati to‘lqinlarini ilmiy-texnik rivojlanishning iqtisodiy o‘sishga ta’siri bilan bog‘lash imkonini berdi.

Kondratev N.D. uzoq davr uchun (XVIII asr oxiridan boshlab) Angliya va AQShda sanoat va qishloq xo‘jaligi tovarlari narxlari dinamikasidagi katta to‘lqinlarni chuqur tahlil qilib quyidagi xulosalarga keldi:

- XIX asr va XX asr boshlarida narxlar o‘zgarishining umumiy tendentsiyasi texnik taraqqiyotning rivojlanishi (mehnat qurollari, aloqa vositalarining takomillashuvi, korxonalar tashkil etilishini o‘z ichiga olgan) va shu bilan bog‘liq mehnat unumdorligining oshishi, ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi tufayli ularning mutlaq darajasining pasayishi edi;

- shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxining sanoat mahsulotlariga nisbatan nisbiy o‘sishi tendentsiyasi kuzatildi, chunki qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligining o‘sishi va ishlab chiqarish tannarxining pasayishi jarayoni sanoatga qaraganda sekinroq ro‘y beradi.

Kondratev N.D. o‘zining 1925 yilda chop etilgan “Kon’yunkturaning katta sikllari” deb nomlangan maqolasida *katta sikllarning pastga yo‘nalgan to‘lqinlari qishloq xo‘jaligining uzoq muddatli depressiyasi bilan birga kechishini, bu esa qishloq xo‘jaligi tovarlari va yer ijarasi narxlarining pasayishiga olib kelishini* umumiy tendentsiya (“empirik to‘g‘rilik”) sifatida ko‘rsatdi.

Texnologik ukladlar almashinuvi qonuniyatini ham hisobga olishimiz zarur. Yakovets Yu.V. o‘zining tadqiqotlarida ta’kidlashicha, dunyo mamlakatlari taxminan 2026 yildan boshlab, birinchi bosqichda ilg‘or davlatlar va sivilizatsiyalar, keyin esa butun sayyoramiz mamlakatlarini keskin rivojlanishga olib keladigan tayanch innovatsiyalarning yuqori to‘lqiniga kiradi.

Iqtisodiyotning agrar sektorida innovatsion faoliyatni boshqarishning samarali modelini yaratish uchun fundamental tadqiqotlar, amaliy va eksperimental ishlanmalar va ishlab chiqarish o‘rtasidagi nisbatlarni tavsiflovchi *ilm-fanning oldinroq rivojlanish qonuniyatini* hisobga olish zarur.

Iqtisodiyotning agrar sektorida innovatsiyalarni rivojlantirishning hozirgi xalqaro texnologik tendentsiyasi uning *axborot-biotexnologik tabiati* bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari agrar sektor tarmoqlaridagi asosiy ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishda, axborot-konsultatsiya xizmatlari faoliyatini jonlantirishda ko‘rinadi. Haqiqatan ham dunyoda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining 60-80%i innovatsiyalarni axborot-konsultatsiya xizmatlari orqali o‘zlashtiradilar.

Yevropa Ittifoqida bir nechta internet-portallar bor, shu jumladan, agrar sektordagi joriy holat haqida to‘liq ma’lumotni bepul beradigan davlat internet portallari. Bundan tashqari, masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining har birida so‘yladigan cho‘chqa va cho‘chqa go‘shti uchun narxlar har hafta yangilanadi. Bu fermerlar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchilarga o‘z faoliyatini yaxshiroq rejalashtirishga imkon beradi.

“Braziliyaning statistic xizmatlari barcha turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga haftalik narxlarni bepul taqdim etadi va ishlab chiqarilgan mahsulotlar, eksport va import to‘g‘risidagi ma’lumotlar muntazam ravishda e’lon qilinadi”.

Xulosa. Iqtisodiyotning agrar sektorida texnologik va innovatsion jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish ushbu sohada samarali boshqaruv modelini shakllantirishning muhim ilmiy asosini tashkil etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, agrar sektor rivoji nafaqat iqtisodiy qonuniyatlar, balki tabiat

qonunlari bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lib, bu uning boshqa tarmoqlardan tubdan farqlanishiga sabab bo‘ladi.

Agrar sektorda innovatsion jarayonlar ko‘p bosqichli va siklik xarakterga ega bo‘lib, ular ilmiy-tadqiqot ishlari, ishlab chiqarish, saqlash va realizatsiya jarayonlarining uzviy bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Innovatsiyalar samaradorligi esa ularning to‘g‘ri boshqarilishi, resurslar bilan ta‘minlanishi hamda bozor talablariga moslashuv darajasiga bevosita bog‘liqdir. Aks holda, innovatsion jarayonlarning uzilishi yoki iqtisodiy samarasizligi kuzatilishi mumkin.

Shuningdek, agrar sektorda innovatsion rivojlanish tabiiy va iqtisodiy sikllar, jumladan hosildorlik tebranishlari, iqlim o‘zgarishlari hamda uzoq muddatli iqtisodiy sikllar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlandi. Kondratevning “uzun to‘lqinlar” nazariyasi asosida agrar ishlab chiqarish dinamikasining ilmiy-texnik taraqqiyot bilan uzviy aloqadorligi asoslab beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гончаренко, Ирина Юрьевна. "Формирование эффективной модели управления инновационной деятельностью в аграрном секторе экономики России." М.: Государственный университет управления (2016).
2. Кондратьев Н.Д. Большие циклы конъюнктуры и теория предвидения. Избранные труды/Н.Д.Кондратьев; Международный фонд Н.Д.Кондратьева и др.; Ред. Колл.: Абалкин Л.И. (пред.) и др.; сост. Яковец Ю.В. -М.: ЗАО “Издательство “Экономика”, 2002.-767 с.
3. Burxanov A.X. Zamonaviy qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti: yangi imijining shakllanishi Monografiya – Sirdaryo: Ziya nashr-matbaa, 2024. – 132 b.
4. Кузык Б.Н., Яковец Ю.В. Россия-2050: стратегия инновационного порыва. 2-е изд. М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 624 с.
5. Организационно-экономические аспекты развития органического сельского хозяйства в Европейском Союзе/Ахметшина Л.Г. М.: Маркетинг, 2014-33 с.
6. Развитие инновационной деятельности организаций сельскохозяйственного консультирования: инструктивно-метод. издание. - М.ФГБНУ «Росинформагротех», 2015. -144 с.

Rasulova Zohida Sindarovna	3-SINFLARDA BADIY ASARLAR O‘QISHGA QIZIQISHINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI	859
Bahodirov Muzrob Doniyor o‘g‘li, Berdiqulov Azizbek Erkin o‘g‘li	ILMIY-TADQIQOT ISHLARIDA MA’LUMOTLAR BAZASIDAN FOYDALANISH	863
Tashmatova Shalola Ravshanbekovna	KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI	865
Ergasheva Gulruxsor Nurmatzod	XALQARO TIL IMTIHONLARI UCHUN STANDARTLARNING QIYOSIY TAHLILI VA O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIGA INTEGRATSIYASI	868
Акрамова Назира Абдусаматовна	ОТ ЭКОЛИНГВИСТИКИ К ЭКОЛОГИЧЕСКОМУ СОЗНАНИЮ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАКТИКИ В ЭКОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ	871
Tog‘ayeva Maxfuza Abdunazarovna	CHET TILINI O‘QITISHNING UMUMDIDAKTIK TAMOIYILLARI	876
Maxamadiyev Turgunbay Jumabayevich	QISHLOQ XO‘JALIGIDA INVESTITSİYALARNING MOHIYATI VA O‘ZIGA XOSLIGI	878
Matrasulov Baxodir Erbutayevich	IQTISODIYOTNING AGRAR SEKTORIDA TEXNOLOGIK VA INNOVATSION JARAYONLARNING RIVOJLANISH QONUNIYATLARI	881